

**ODIL YOQUBOVNING "ULUG'BEK XAZINASI" ASARIDAGI  
REALIYA VA ULARNING TARJIMASI**

*Abdug'aniyeva Izzatoy*

*Bahodirova Sabrina*

*Maxmaraximova Shaxnoza*

*Mengturayeva Shohista*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

**Annotatsiya:** Maqolada realiya tushunchasi mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o'rni, realiya birliklarning boshqa leksik birliklar orasidagi farqi ohib berilgan.

Shuningdek, realiyalarni tasniflash masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Realiya birliklarning xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug'at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o'rni izohlangan. Realiyalarni o'rganish va ular bilan bog'liq tadqiqotlar doirasini kengaytirish muayyan tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishda va madaniyatlar orasidagi farqlarni keng yoritishda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** Realiya, madaniyat, terminologiya, milliy so'zlar, ilmiy adabiyotlar, tarjimalar, olimlar fikri, realiyalarni tasniflash.

**REALIA AND THEIR TRANSLATION IN "THE GREAT TREASURE" OF ODIL YOQUBOV**

**Abstract:** In the article, the essence of the concept of realita, its place in linguistics, the difference between real units and other lexical units is revealed. The issues of classification of realities were also touched upon. Realia the connection of the units with the people's way of life, outlook and culture and their role in increasing vocabulary and reflecting national color is explained. The study of realities and the scope of research related to them. It is noted that expansion is of special importance in studying the characteristics of internal development of a particular language and in widening the differences between cultures.

**Key words:** Realia, culture, terminology, national words, scientific literature, translations, opinions of scientists, classification of realities.

**KIRISH**

Realia (ko'plik ism) madaniyatga xos moddiy elementlar uchun so'zlar va iboralardir. Realiya so'zi o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, u dastlab „haqiqiy narsalar“ degan ma'noda, ya'ni mavhum narsalardan farqli ravishda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyani chuqr o'rganishni birinchi bo'lib amalga oshirgan bolgar tarjimonlari Vlahov va Florin so'zning zamonaviy ma'nosini yaratdilar. Ular shuni

ko'rsatadiki, realiya juda milliy ohangga ega bo'lgani sababli, ular ko'pincha tarjima uchun qiyinchilik tug'diradi. Realiyani terminologiya bilan chalkashtirib yubormaslik kerak: terminologiya - ilmiy adabiyotda ilmiy sohaga tegishli narsalarni belgilash uchun ishlataladi va odatda juda aniq stilistik maqsadga xizmat qilish uchun faqat boshqa turdag'i matnlarda qo'llanadi. Badiiy adabiyot, ular keltiradigan ekzotik ko'rinish uchun realiyani yaxshi ko'radi.

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar realiyalarni "so'zning nominativ ma'nosi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari" deb ta'riflashgan. L.N.Sobolev fikriga ko'ra, ekvivalentlariga ega bo'l'magan maishiy va o'ziga xos milliy so'zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo'l'magan milliy turmush tarziga oid birliklar "realiya" hisoblanadi, negaki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmaydi. A.V.Fedorov "realiya" deganda ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlarnitushunadi. T.I.Cheremisinanining fikriga ko'ra, "realiya-so'zlar local belgilangan so'zlar hisoblanib, muayyan millatga xos urf-odatlar, maishiy predmetlarni belgilash uchun xizmat qiladi". G.D.Tomaxin esa quyidagicha ta'riflaydi: "Realiyalar faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlarni ifodalaydi". So'z-tilning asosiy birligi bo'lib, predmetlarning nomlarini va ularning xususiyatlarini, hodisalarni, borliqqa munosabatlarini bildirishga xizmat qiladi. Realiyani tarjima qilish uchun turli strategiyalar mavjud: ular fonetik transkripsiyanidan tortib, umumiy ma'no tarjimasigacha.

Misol uchun Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asarida keltirilgan realiyalarni ko'rib chiqamiz.<sup>1</sup>

Shaxriyori falak - iqtidor qudratli shox manosida.

Daxa - Daxa o'n kishi-o'n kishi Misol uchun: sarbozlar daxa daxa bolib gulxan yoqib o'tirishardi.

Cherik - ko'ngillilar ma'nosida Misol uchun: Arzim shuki cherik yig'sak.

Ilik - qo'l Misol uchun: Ularni sodiq bo'lsin desang, qilichingni ililingda maxkam ushla.

Jomiul ulum - ilm xazinasi Jomiul ulum atalmish bu xazina uchinchi oshyonaning ikkita katta xonasini egallagan edi.

Chin - Xitoy.

Bay'at etmoq - qasamyod qilmoq Masalan: A'loxazratlarining jamiki sarkardalari taxtimizning valiaxdi Abdullatifga bay'at etgandur.

Mankuxa - jufti haloli.

---

<sup>1</sup> Vlahov, S. and Florin, S. "Neperovodimoe v perevode. Realii", in Bruno Osimo. "Manuale del Traduttore, Seconda Edizione". Hoepli, 2004, p. 63

Muqarrab-us sultonlar - eng yaqin kishilari.

Farzi ayn - bajarilmog'i lozim buyruq. Misol uchun: O'z qiblagohining irodasi farzand uchun Farzi ayndur.

Ko'laga - ko'lanka, soya Misol uchun: Nishon tuynuklarida ham allaqanday qora ko'lagalar ko'zga chalinardi.

G'addor - aldamchi, xiyonatchi, xoin, zolim).

Shaqiyalar - yovuzlar . Va illo bu bediyonat shaqiyarning jazosi shuldir!

Qiyg'och - qayrilma, qayrilgan . Misol uchun: Haram bekasi o'rtasiga ko'kimtir xol qo'yilgan qiyg'och qoshlarini chimirib, amirga qaradi.

Nuqusil aql - kaltabinlar ma'nosida. Misol uchun: Bu nuqusil aql gumrohlarga bosh egib, bo'lg'usi nasllar, avlod va ajdodlar la'natiga qolgandan, bu zindonda chirib ketganim yaxshidur!

Qamar - oy.

Shams - quyosh.

Raja - umid.

Ravzai Rizvon - jannat bog'i.

Qiyg'och - qisiq.<sup>2</sup>

## XULOSA

Realiyalarni o'rganish uni tahlil qilib yorqin bayonot berish juda muhim narsalardan biri hisoblanadi. Negaki, qaysidur tilni chuqurroq o'rganib, uning mohiyatini madaniyatini o'sha tilga yana ham chuqurroq kirib, uning boy qadriyatlarini anglab o'rganish, aynan o'sha tilni o'rganish jarayonida unga bo'lgan hurmatini va o'sha tilning sifatli bo'lishini yana ham boyitib ta'minlab boradi. Aynan realiya tushunchasi bu tilning qanchalik lug'at boyliklari qanday usul, so'zlardan foydalanganliklari ularning mazmun mohiyatini yana ham yoritib berishdagi muhim birliklardan hisoblanadi. Realiyalar orqali biz o'sha so'zning asl ma'nosini anglab ularni tahlil qilib o'rganib boramiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vlahov, S. and Florin, S. "Neperovodimoe v perevode. Realii", in Bruno Osimo. "Manuale del Traduttore, Seconda Edizione". Hoepli, 2004, p. 63
2. Ulug'bek xazinasi: roman / Odil Yoqubov. To'ldirilgan qayta nashri. – Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. 3-319 betlar.
3. [https://oriens.uz/media/journalarticles/124\\_Qutbiddinova\\_Noila\\_Rivojiddin\\_qizi\\_771-777.pdf](https://oriens.uz/media/journalarticles/124_Qutbiddinova_Noila_Rivojiddin_qizi_771-777.pdf)
4. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/5259/4834/10194>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/realiyalarning-tarjima-qilishdagi-murakkabliklari-yapon-tili-misolida>

<sup>2</sup> Ulug'bek xazinasi: roman / Odil Yoqubov. To'ldirilgan qayta nashri. – Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. 3-319 betlar.